

MAKTABGACHA TA'LIMDA RAQAMLI IQTISODIYOT*To'rayeva Charosxon Shavkat qizi**Buxoro davlat pedagogika instituti**Maktabgacha ta'lim kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda raqamli iqtisodiyotning barcha sohlarga kirib kelishi jumladan maktabgacha ta'lim tizimi faoliyatiga ham sekin-astalik bilan joriy qilinishi va sohaga oid faoliyatning elektronlashib borayotganligi haqida bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, EMIS tizimi, "Bolalik akademiyasi", "Learning passport" paltformasi, "Ilk qadam" dasturi, "EDU LINK" axborot tizimi.

Аннотация: В данной статье описывается проникновение цифровой экономики во все сферы, включая постепенное внедрение в деятельность системы дошкольного образования, а также возрастающую электронизацию деятельности, связанной с этой сферой.

Ключевые слова: Цифровая экономика, система EMIS, «Академия Детства», платформа «Learning passport», программа «Первый шаг», информационная система «EDU LINK».

Abstract: This article describes the current penetration of the digital economy into all sectors, including the gradual introduction of the post-school education system, and the increasing electronicization of activities in the sector.

Keywords: Digital economy, EMIS system, "Childhood Academy", "Learning passport" platform, "First Step" program, "EDU LINK" information system.

Rivojlangan mamlakatlar siyosatida allaqachon raqamli iqtisodiyot o'z hukmronligini olib bormoqda. Mamalaktimiz taraqqiyoti uchun xizmat qiladigan islohtlarning ham aksariyat qismi bugungi kunda avvalo ta'lim tizimi va har bir sohani raqamlashtirishga qaratilgan. Maktabgacha ta'lim tizimida ham bir qancha o'zgarishlar amalga oshirilayotgan bo'lib, sohaga oid bir necha hujjatlar qog'ozbozlik shaklida voz kechib, elektronlashtirish tizimiga o'tmoqda. Jumladan bolalarni maktabgacha ta'lim

tashkilotlariga navbatga qo'yish, tashkilotga qabul qilish va chiqarish, ota-onalar bilan hamkorlik, pedagoglar faoliyati kabi ishlarni EMIS tizimi orqali amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari bir nechta maktabgacha ta'limga oid elektron saytlar ham faoliyat yuritmoqda. <http://my.mdomoi.uz/> sayti orqali maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagog-xodimlarining faoliyati va reytingi yuritib boriladi. Har bir faoliyatining natijasi ushbu elektron platformada aks etadi.

Bundan tashqari yurtimizda maktabgacha ta'lim tizimni rivojlantirish maqsadida xorij ta'lim-tarbiya tizimidan andoza olib yanada takomillashtirish ishlari olib borilmoqda.

Open EMIS - bu ta'limni boshqarish bo'yicha axborot tizimi, u YUNISEFning texnik, maslahat va moliyaviy ko'magida Maktabgacha ta'lim vazirligi mutaxassislari tomonidan yaratilgan. Platformani joriy etish 2018-yil 1-apreldan boshlab bugungi kungacha amalga oshirilmoqda. EMIS qanday ishlaydi?

Har bir bola bo'yicha axborot individual tarzda EMIS tizimiga kiritiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining rahbarlari endi kompyuter yoki mobil ilova yordamida bolalarning davomatini va salomatligini nazorat qilishga erisha oladilar. Tarbiyachilar guruhning intellektual va emotsional yuksalishini kuzatish imkoniga ega bo'ldilar. Bundan tashqari, endi barcha ta'lim tashkilotlari bolaning rivojlanishi, olgan vaksinalari va tarbiyalanuvchilarning individual ehtiyojlari borasidagi ma'lumotlarni, hamda bolaning maktabga tayyorgarlik darajasi to'g'risidagi axborotni oladilar. [4]

YUNISEF Maktabgacha ta'lim vazirligi va "Bilim Makon" axborot va pedagogika texnologiyalari innovatsion markazi bilan birga "Bolalik akademiyasi" raqamli platformasini ishga tushirdi. Learning Passport YUNISEF va Microsoft hamkorligida yaratilgan bo'lib, moslashuvchan raqamli o'quv platformasidir. U sifatli ta'limdan uzluksiz foydalanish imkonini beruvchi onlayn, mobil va oflayn platforma bo'lib, dunyo bo'ylab millionlab bolalarning o'qishini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatilmoqda.

Yurtimizda maktabgacha ta'limni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ushbu moslashuvchan raqamli o'quv platformasi pedagoglar va ota-onalarning ta'lim-tarbiya

borasida muntazam faolligini oshirish, o‘zaro hamkorlikni mustahkamlash, ilg‘or tajribalarni o‘rtoqlashish va eng muhimi, ta’lim sifatini yaxshilash maqsadini o‘zida mujassam etgan.

Mazkur platforma maktabgacha ta’lim pedagoglarini malaka oshirish kurslari, mashg‘ulotlar rejalari, qo‘shimcha o‘qish uchun materiallar, raqamli ta’lim va tarbiya resurslari bilan ta’minlaydi. Barchasi “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim davlat o‘quv dasturi va O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari asosida ishlab chiqilgan.

Bolaning 5 yoshga qadar egallagan bilimi butun umri davomida oladigan ta’lim-tarbiyasi uchun mustahkam poydevor bo‘ladi. Buning uchun tarbiyalovchi va rag‘batlantiruvchi muhit yaratilishi, bu orqali bolalar o‘qib o‘rganishi, rivojlanishi va yutuqlarga erisha olishi zarur, — deydi maktabgacha ta’lim vaziri Agripina Shin. — Ushbu muhim davr hayotda faqat bir marta keladi. Shu bois, u maktabgacha yoshdagi millionlab bolalarning kelgusi rivojlanishi uchun juda muhim. Ularning butun umri davomida erishadigan natijasi, moliyaviy ta’minlanganlik darajasi aynan shu vaqtda beriladigan yordamga bog‘liq.

Bolaning mustaqil fikrlash layoqatini shakllantirish, qobiliyatini ro‘yobga chiqarish hamda bilim olishga intilishini qo‘llab-quvvatlashda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati katta. Shu ma’noda, mazkur texnologik innovatsion g‘oya mamlakatimiz bo‘ylab maktabgacha yoshdagi bolalarga bog‘chalarga borishi yoki bormasligidan qat’i nazar, yuqori sifatli o‘quv resurslaridan foydalanish imkonini beradi.

Ma’lumotlar foydalanish uchun qulay shaklda joylashtirilgan bo‘lib, kerakli manbani tez topish mumkin va yangi ishlanmalar doim qo‘shilib boradi. “Bolalik akademiyasi” uyda ta’lim berish uchun ham beqiyos ko‘makchi. U oddiy mashg‘ulotlar uchun kutubxona va ota-onalar uchun tavsiyalar, birgalikda o‘ynaladigan o‘yinlar bo‘yicha ko‘rsatmalarni o‘z ichiga oladi. Bunday o‘yinlar ota-onalar va bolalarning o‘zaro munosabatini rivojlantiradi.

Pedagoglar bolalar hayotiga eng ko‘p ta’sir ko‘rsatadigan mutaxassislardir. Ular malaka oshirish kurslarida o‘qib, yangi bilim va ko‘nikmalarni egallashi hamda o‘z faoliyatida qo‘llashi mumkin. Tarbiyachilar zamonaviy va ilg‘or ta’lim amaliyotidan foydalanganda bolalar jismoniy, hissiy va ta’limiy jihatdan o‘sishga erishadi. “Bolalik akademiyasi” pedagoglarimizning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun katta qulayliklar taqdim etadi.

“Bolalik akademiyasi” bolalar foydalanishi uchun ham qulay. Ular savodxonlik, hisoblash va ijtimoiy-hissiy ko‘nikmalarni rivojlantiruvchi o‘yinlarni o‘ynashi, ona tilimizdagi elektron kitoblarni o‘qishi mumkin. Bundan tashqari, o‘quv-ko‘ngilochar videolarni tomosha qilish va yoshga mos kutubxonadan foydalanish imkoniyati ham mavjud.

Platformadagi o‘quv materiallari ilg‘or tajriba asosida yaratilgan va ishonchli. U tekshirilmagan manbalardan ma’lumot qidirishga ehtiyoj qoldirmaydi. Ushbu platformani boshqa tizimlar va malaka oshirish institutiga integratsiya qilish ko‘zda tutilgan. Bu pedagoglarning kasbiy bilimini muntazam rivojlantirib borishiga xizmat qiladi. “Bolalik akademiyasi” platformasi ta’lim sifati bo‘yicha “o‘sish nuqtasi” bo‘lishi shubhasiz.

O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida bolalarga maktabgacha ta’lim tashkilotida ta’lim-tarbiya berishning noyob muqobil usullarini izlash va amaliyotda joriy etish muhim ahamiyatga ega ekaniga alohida urg‘u berilgan. Bugun maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga har qachongidan katta e’tibor qaratilmoqda. Zero, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida ta’lim-tarbiya jarayoni qanchalik yuqori saviyada tashkil etilsa, bolaning intellektual salohiyati shunchalik yuqori shakllanadi. Shu nuqtai nazardan joriy etilayotgan yangi platforma ta’lim sifati va mazmuniga samarali ta’sir ko‘rsatishi bilan ahamiyatlidir.

Mingdan ortiq o‘quv va tarbiya materiallari, yuzdan ortiq videoroliklar o‘zbek tilida, raqamlashtirilgan holda joylashtirilgan ushbu platformani ishga tushirish orqali

yurtimiz bo'yicha 20 mingga yaqin pedagogni qamrab olish, 1,5 millionga yaqin bolaning o'qish va rivojlanish natijasini yaxshilash ko'zda tutilgan.

“Ma'lumotlarga ko'ra, aynan erta va maktabgacha yosh davrida sarmoya kiritish foydali. Bolalarni erta yoshidanoq tarbiyalash, himoya qilish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash ijobiy o'zgarishlarga olib keladi. Erta ta'limga kiritilgan sarmoya 16 baravar ko'payib qaytadi, — deydi YUNISEFning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Munir Mamedzade. — Shuning uchun ham YUNISEF O'zbekistonda Learning Passport “Bolalik akademiyasi” o'quv platformasini ishga tushirish bo'yicha innovatsion yondashuvni tatbiq qildi. Ushbu platforma 3–6 yoshli bolalarning tarbiyachilari va ota-onalari o'z bilim va ko'nikmalarini oshirishlariga imkon yaratadi”. [3]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF 6079 sonli “Raqamli O'zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida”gi farmonida[1] raqamli dunyoda raqamlashtirish, raqamli texnologiyalarni ishlab chiqish, raqamli iqtisodiyot sohasida yangi loyihalarni ko'rib chiqish va raqamli ta'limni rivojlantirish dasturlari amalga oshirilmoqda. Ushbu farmonda ta'lim sohasida raqamli ko'nikmalarni oshirish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- ✓ ta'lim pog'onasining boshlang'ich bosqichida o'quvchilarga raqamli texnologiyalarni taqdim etish orqali raqamli ko'nikmalarni o'zlashtirish uchun imkoniyatlar yaratish, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, kelajakda zarur bo'ladigan keng ko'lamli raqamli transformatsiya sharoitida yoshlarga bilim va ko'nikmalar berish;

- ✓ yagona masofaviy ta'lim platformasini kelajakda ta'limning barcha yo'nalishlarida tatbiq etish maqsadida yaratish va amalga oshirish; o'quvchilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida umumta'lim maktablarining asosiy o'quv dasturlariga doimiy o'zgartirishlar kiritish;

- ✓ texnologik kasblar va innovatsion faoliyat sohasida o'qishni tashkil etishga qaratilgan yuqori samarali xalqaro amaliyotni ta'lim tizimiga joriy etish;

✓ maktabgacha, oʻrta va oliy taʼlim tizimi uchun elektron taʼlim resurslarini yanada takomillashtirish, shuningdek, ichki va jahon taʼlim resurslaridan foydalanishni taʼminlash;

Mamlakatimiz maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolalarimizning aksariyat, yaʼni 3-6 yoshdagilari tarbiyalanadi. Xalqimizda bir naql bor: “Yoshlikda olingan bilim toshga oʻyilgan naqshdir”. Mana shu yoshda bolalarning rivojlanishi juda kuchli boʻladi. Atrof muhitning taʼsiri va atrofdagilarning tarbiya berishi ularning qolgan hayotiga ham taʼsiri va ahamiyati kuchli hisoblanadi. Hali boshlangʻich maktabga kirmagan bolalarning hozirgi zamon texnologiyalarning oʻrganishi va uni qoʻllay bilishi soʻngi yillarda tezlik bilan rivojlanib kelmoqda va rivojlanib ham boradi. Dastlabki bolalalik davrida raqamli dunyoda taʼlim berish va bilim olish yoʻllarini samarali tashkil etish bugungi kunning dolzarb muammolaridan biri. Bu muammoning nazariy yechimi tarbiyachilar, bolalar va ularning ota-onalarini raqamli dunyoda oʻqitishga yangicha yondashishlarni amalga oshirish hisoblanadi. Turli dasturlar, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlardagi guruhlar kabi bir qator yangi texnologiyalar bolalar taʼlimiga yangi innavatsion investitsiyalarni joriy qilishning asosiy taʼlim vositalari vazifalarini bajaradi. Xorijiy davlatlarda “Aflatot” dasturi maktabga kirmagan bolalar uchun moʻljallangan boʻlib, u ijtimoiy va iqtisodiy savodxonlikka asos soluvchi dastur hisoblanadi. Bunday dasturlar balalarning birinchi taʼlim olishlari va hayotiy koʻnikmalarini shakllantirishda juda muhimdir. Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida raqamlashtirish borasida YUNISEF tomonidan Oʻzbekistondagi maktabgacha taʼlim sohasini rivojlantirish uchun “Learning passport” nomli raqamli taʼlim platformasini yaratish, Oʻzbekistondagi Yaponiya JICA vakolatxonasi tomonidan Oʻzbekistonda alohida parvarishga muhtoj bolalar bilan ishlaydigan pedagog kadrlarning malakasini oshirish boʻyicha loyihasi, Koreya-Oʻzbekiston biznes assotsatsiyasi tomonidan maktabgacha taʼlim tizimi uchun yaratilayotgan “EDU LINK” axborot tizimi loyihasi kabi ishlar amalga oshirildi.[2]

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF 6079 sonli “Raqamli O‘zbekiston 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni.
2. “Mamlakatimiz ta’lim tizimida raqamlashtirish va raqamli dunyoda o‘qitish va o‘rganishning mavjud imkoniyatlari” Akramjon O‘ktamjonovich Mirzayev Andijon davlat universiteti boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrası v.b. dotsenti 2021.
3. “Bolalik akademiyasi” raqamli platformasi tarbiyalanuvchiga nima beradi, tarbiyachiga-chi? Maqola, Risolat Madiyeva, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri 19.04.2022.
4. https://innocentr.uz/uz/open-emis_7798.html